

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 169 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI



Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li

TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari
ilmiy tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi (PhD),
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti"
Kafedrasi katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0009-1911-0342

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan hamda moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimli tarzda o'rganilgan. Tadqiqotda faktoriy tahlil va moliyaviy ko'rsatkichlar asosidagi baholash usullari qo'llanilib, korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish mexanizmlari taklif etilgan. Natijalar moliyaviy xavflarni kamaytirish, kapital tuzilmasini optimallashtirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy barqarorlik, samarali faoliyat, majburiyat, omillar, faktorial tahlil, risk, resurs, sanoat korxonalari, to'lov qobiliyati, likvidlik.

Abstract. This article discusses the scientific, theoretical and methodological foundations of ensuring financial stability in industrial enterprises. Existing scientific approaches are analyzed and internal and external factors affecting financial stability are systematically studied. The study uses factor analysis and assessment methods based on financial indicators, and proposes mechanisms for managing the financial stability of enterprises. The results provide a basis for developing practical recommendations for reducing financial risks, optimizing the capital structure and increasing the efficiency of financial management.

Keywords: Financial stability, effective activity, obligation, factors, factorial analysis, risk, resource, industrial enterprises, solvency, liquidity.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-теоретические и методические основы обеспечения финансовой устойчивости промышленных предприятий. Проанализированы существующие научные подходы и системно изучены внутренние и внешние факторы, влияющие на финансовую устойчивость. В исследовании использованы факторный анализ и методы оценки на основе финансовых показателей, а также предложены механизмы управления финансовой устойчивостью предприятий. Полученные результаты служат основой для разработки практических рекомендаций по снижению финансовых рисков, оптимизации структуры капитала и повышению эффективности финансового менеджмента.

Ключевые слова: Финансовая устойчивость, эффективная деятельность, обязательства, факторы, факторный анализ, риск, ресурс, промышленные предприятия, платежеспособность, ликвидность.



KIRISH

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi uning samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyati, to'lov qobiliyatini ta'minlash, raqobatbardoshlikni saqlash, xarajatlarni qoplash uchun barqaror moliya manbalariga ega bo'lish va tadbirkorlik xavfini minimal darajada ushlab turish bilan tavsiflanadi.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholashda faktoriy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning ta'sir darajasini baholash hamda moliyaviy zaxiralarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni samarali boshqarish uchun uni ta'minlaydigan mexanizmni ishlab chiqish zarur. Faktoriy tahlil asosida tashkilotning moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtiriladi, boshqaruv jarayoni esa korxonada paydo bo'layotgan moliyaviy muammolarni bartaraf etishga yo'naltiriladi. Bu esa o'z navbatida korxonaning barqaror ishlashi, rivojlanishi va raqobat sharoitida uzoq muddatli ustuvorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, faktor tahlili asosida moliyaviy boshqaruv tizimiga eng samarali moliyaviy vositalarni kiritish, risklarni kamaytirish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyati vujudga keladi.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan global moliyaviy inqirozlar, tashqi iqtisodiy xavf-xatarlar va ichki bozordagi raqobat muhiti sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Moliyaviy barqarorlikning yo'qolishi korxonalarning to'lov qobiliyati pasayishi, investitsiyaviy jolibadorlikning susayishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Ushbu ilmiy maqolamizning asosiy maqsadi — sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish, baholash usullarini takomillashtirish hamda milliy amaliyot uchun amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlik masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, turli maktab va yo'nalishlar doirasida turlicha talqin qilingan. Xususan, xorijiy olimlardan F. Modigliani va M. Miller o'z asarlarida kapital tuzilishi va korxona qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslab berdilar [1]. Ular moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda qarz va o'z mablag'lari nisbatining muhim omil sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. R. Brealey va S. Myers esa moliyaviy boshqaruv vositalarini strategik qarorlar qabul qilishda asosiy mezon sifatida ko'rib, moliyaviy barqarorlikni uzoq muddatli samaradorlikning kafolati sifatida talqin qiladilar [2].

Rossiyalik tadqiqotchilardan V.A.Malyshenko, V.V. Ivanov va N.V.Skoroxodlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimi va ularning dinamikasini tahlil qilish muhimligini ta'kidlaydilar [3]. Shuningdek, A.M.Petrov moliyaviy barqarorlikni baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, uning modellari sanoat korxonalari amaliyotida qo'llanilmoqda [4].

Boshqa tadqiqotchilar — G.D.Kapanadze, M.V.Petrovskaya va Yu.A.Chursinalar moliyaviy barqarorlikni boshqarishda risklarni minimallashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy oqimlarni optimallashtirishning ahamiyatini alohida qayd etadilar [5].

O'zbekistonlik olimlaridan S.Davletov, Sh.Nazarov, X.M.Saydahmedov va boshqalar moliyaviy barqarorlikning milliy xususiyatlariga e'tibor qaratib, korxonalar moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda davlat siyosati va kredit-moliyaviy vositalarning roli asoslab berishgan [6]. Ular sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun kreditlardan oqilona foydalanish, investitsiya faoliyatini kengaytirish va moliyaviy risklarni boshqarish zarurligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalar faoliyati jarayonida har qanday tashkilot ishlab chiqarish, aylanma mablag'lar harakati va mahsulotni sotishning barcha bosqichlarida moliyaviy boshqaruv vositalaridan foydalanadi. Mazkur



vositalarning asosini moliya tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlardagi turli mualliflarning qarashlarini tahlil va umumlashtirish asosida xulosa qilish mumkinki, moliya — bu yalpi ichki mahsulot (YAIM) va milliy daromad qiymatini taqsimlash hamda qayta taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari majmuidir. Moliyaning iqtisodiy mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, u markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarni shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va keyinchalik ko'paytirish imkoniyatini yaratadi. Korxona moliyasini boshqarish jarayonida turli moliyaviy munosabatlar shakllanadi va ularni samarali tarzda yo'naltirish korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy biznes boshqaruvi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni va samarali vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Shu bilan birga, amaliyotda moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'pincha mualliflar barcha ta'sir etuvchi omillarni to'liq hisobga olmaydi va uni boshqarishda cheklangan vositalardan foydalanish bilan kifoyalanadilar. Shu boisdan ham tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini chuqur o'rganish va takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyotda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Tashkilotning moliyaviy barqarorligi tushunchasi zamonaviy ilm-fan adabiyotlarida keng yoritilgan bo'lib, qoida tariqasida, har bir tashkilot strategik moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan metodologiyani ishlab chiqishda yagona yondashuvga asoslanishi lozim [7]. Bunday metodologiya uzoq muddatli istiqbolda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida uning moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirishni o'z ichiga oladi [8]. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik ko'plab omillarni hisobga olgan holda doimiy ravishda o'zgarib turadigan holat sifatida qaralishi mumkin. Ya'ni u tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgarib turuvchi tarkibiy moliyaviy elementlar kombinatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi [9].

Tashkilotning moliyaviy barqarorligi iqtisodiy tahlilda muhim obyekt hisoblanadi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy va ishlab chiqarish rejalarining belgilangan standartlarga javob berishi tashkilotning barqarorligini mustahkamlaydi. Aks holda, rejalar bajarilmasa, ishlab chiqarish tannarxining oshishi, daromadning kamayishi va natijada moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi ehtimoli yuqori bo'ladi [10].

Iqtisodiy adabiyotlarda "moliyaviy barqarorlik" tushunchasi turlicha izohlanadi. Umuman olganda, moliyaviy barqarorlik — bu korxonaning o'z moliyaviy resurslarini samarali boshqarishi, tashqi va ichki moliyaviy xatarlarga bardosh berishi hamda uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan holatidir.

Keng ma'noda, moliyaviy barqarorlik quyidagi mezonlar asosida namoyon bo'ladi:

- korxonaning to'lov qobiliyati va likvidligini ta'minlash;
- o'z kapitali va qarz kapitali o'rtasidagi optimal nisbatga erishish;
- daromadlar xarajatlardan ustun bo'lishi va foyda hosil qilish;
- moliyaviy resurslarni takror ishlab chiqarish jarayonida uzluksiz aylanishini ta'minlash;
- investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati.

Tor ma'noda esa moliyaviy barqarorlik — bu korxonaning o'zining moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi, qarz yukini qoplay olishi va uzoq muddatli investitsiya dasturlarini amalga oshirish imkoniyatidir.

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarning ta'siri har doim ham bir yo'nalishda namoyon bo'lmaydi. Ayrim hollarda ular ijobiy moliyaviy natijalarga erishish imkoniyatini oshirsa, boshqa hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aslida omillarning o'zi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini belgilab bermaydi, balki ularning samarasi korxona tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari va amalga oshiriladigan strategiyalar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli tahlil jarayonida ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar o'zaro bog'liq holda o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi. Bu esa tashkilotning rentabelligi yoki zararli faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy tashqi va ichki omillar majmuini aniqlash va ularni tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali va murakkab tizimli xususiyatga ega bo'lib, ularning ta'siri ham ijobiy, ham salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois omillarning o'zi to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy natijalarni belgilab bermaydi, balki ularning samarasi korxona tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari va amalga oshiriladigan strategiyalar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ichki va tashqi omillar o'zaro bog'liq holda tahlil etilganda, ularning to'g'ri boshqarilishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, aks holda esa iqtisodiy xatarlar va moliyaviy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, tahlil jarayonida ijobiy va salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni bir tizimda o'rganish zarur. Bu holat tashkilotning moliyaviy natijadorligi, rentabellik darajasi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Ijobiy va salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin bo'lgan omillar

Omil turi	Ijobiy ta'siri	Salbiy ta'siri
Ichki omillar	Kapital tarkibining optimalligi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi	Kapital tuzilishida nomutanosiblik qarz yukini ko'paytirishi mumkin
	Aylanma mablag'larni samarali boshqarish likvidlikni ta'minlaydi	Aylanma mablag'larning noto'g'ri boshqarilishi likvidlik inqiroziga olib keladi
	Ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish foydani oshiradi	Xarajatlarning ortiqcha o'sishi rentabellikni pasaytiradi
Tashqi omillar	Milliy iqtisodiyotdagi barqaror siyosat investitsiya muhitini yaxshilaydi	Makroiqtisodiy beqarorlik korxonalar risklarini oshiradi
	Bank tizimidagi kredit resurslariga yetarli kirish imkoniyati korxona imkoniyatlarini kengaytiradi	Kredit foiz stavkalari yuqoriligi qo'shimcha xarajatlarga olib keladi
	Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish innovatsiyalarni rag'batlantiradi	Xorijiy bozorda talab va narx o'zgarishi eksport imkoniyatlarini cheklaydi

Tashqi omillar — davlatning zamonaviy iqtisodiy siyosati, innovatsion iqtisodiy rivojlanish darajasi, bozorlarning barqarorligi va to'lov qobiliyatiga ega iste'molchilar talabi, infratuzilmani rivojlantirish holati bilan belgilanadi. Ichki omillar — tashkilotning ishlab chiqarish tarkibi va tuzilishi, ishlab chiqarish fondlari, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi, moddiy va moliyaviy resurslar holati, sohaga bog'liqlik darajasi, mahsulotlar tarkibi va tuzilishi, shuningdek boshqaruv tizimining samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

Shunday qilib, tashkilotning moliyaviy barqarorligini chuqur va har tomonlama tahlil qilish jarayonida ta'sir etuvchi barcha omillarni (omil elementlarini) hisobga olish zarur. Chunki ayrim omillarni alohida tahlil qilish va boshqalarni e'tibordan chetda qoldirish korxonani boshqarishda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Har tomonlama omil tahlili esa tashkilotning moliyaviy barqarorligini rivojlantirish imkoniyatlarini uzoq muddatli prognozlash uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.

Moliyaviy tahlilning mavjud turli usullari orasida tashkilotning moliyaviy barqarorligini baholashda moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki koeffitsiyentlarni hisoblash orqali jadvalda keltirilgan model asosida tashkilotning moliyaviy barqarorlik turini aniqlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalari faoliyatini samarali tashkil etishda moliyaviy barqarorlik mezoni strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat, avvalo, korxonaning to'lov qobiliyati, likvidlik darajasi, rentabellik ko'rsatkichlari va kapital tuzilmasining muvozanatli bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni baholashda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda faktorli, koeffitsiyentli va indikatorli usullarga ajratish mumkin. Faktor tahlil usuli moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillarning nisbiy ta'sir kuchini aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, korxonaning moliyaviy siyosatida ustuvor yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi. Tahlil jarayonidan kelib chiqib moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki omillar qatoriga quyidagilarni:

- ✓ kapital tuzilmasining optimalligi (o'z va jalb qilingan mablag'lar nisbati);
- ✓ ishlab chiqarish xarajatlari va aylanma mablag'lar samaradorligi;
- ✓ rentabellik va foyda ko'rsatkichlarining dinamikasi;
- ✓ boshqaruv tizimining moliyaviy nazorat darajasini kiritishimiz o'rinnidir.

Shu bilan birga, tashqi omillar qatorida makroiqtisodiy muhitning barqarorligi, kredit-moliyaviy tizimning holati, davlatning soliq va investitsiya siyosati, tashqi bozordagi raqobat darajasi kabilar asosiy ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Modigliani, F., & Miller, M. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. The American Economic Review, 48(3), 261–297.
2. Brealey, R., & Myers, S. (2013). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
3. Малышенко, В.А., Иванов, В.В., & Скороход, Н.В. (2016). Финансовая устойчивость предприятий: теория и практика. Москва: Финансы и статистика.
4. Петров, А.М. (2014). Методические подходы к оценке финансовой устойчивости организаций. Финансы и кредит, №7, 15–21.



5. Капанадзе, Г.Д., Петровская, М.В., & Чурсина, Ю.А. (2018). Финансовая устойчивость предприятия и её обеспечение в современных условиях. Экономический анализ: теория и практика, №12, 45–53.
6. Назаров, Ш.Х., Сайдахмедов, Х.М., Давлетов, С. (2020). Иқтисодий барқарорлик ва молия-кредит воситалари. Тошкент: "Иқтисод-молия".
7. Шишкин, А.В. (2016). Теоретический анализ финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов. Известия Уральского государственного экономического университета, (2), 58-67.
8. Varaksa, N. G., & Alekhina, E. A. (2019). Формирование элементов финансовой безопасности экономического субъекта. Управленческий учет, (8), 31-41.
9. Зиновьева, А. А., Казакова, Н. А., & Хлевная, Е. А. (2016). Актуальные проблемы контроля финансовой безопасности компании. Финансовый менеджмент, (2), 3-12.
10. Khrarova, E. V., & Kuchanov, B. I. (2016). Практические аспекты оценки финансовой устойчивости предприятий. Финансовый менеджмент, (2), 41-46

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100